

## **Bank xizmati iste'molchilar bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda nizoni sudgacha hal etish imkoniyati va usullari.**

“Trastbank” XAB Amaliyot boshqarmasi hamda barcha filiallarda iste'molchilar bilan tuzilgan shartnomalar yuzasidan nizoli vaziyat yuzaga kelgan holatlarda, nizoni sudgacha hal etish yuzasidan O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 29 avgustdag'i “Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida”gi Qonunida hamda mijoz va bank o'rtasida tuzilgan shartnomada belgilangan tartiblarga rioya qilingan holda ish tutiladi.

Bunda filial xodimlari mijoz bilan tuzilgan shartnoma yuzasidan vujudga kelgan nizoli vaziyatni hal etish bo'yicha bevosita ikkinchi taraf bilan o'zaro kelishuvga kelish harakatlarini amalga oshiradilar. Taraf deganda nafaqat bank bilan shartnoma tuzgan mijozning o'ziga emas, balki ushbu shartnoma yuzasidan shartnoma majburiyatlarini bajarilishi ta'minoti sifatida mazkur shartnoma ishtirokchisi bo'lган kafil, garov mulki egasi bo'lган jismoniy hamda yuridik shaxslarni ham nazarda tutishimiz lozim. Ushbu jarayon quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Mijoz tomonidan shartnomada belgilangan majburiyatlarini bajarish muddati 1 (bir) kunga kechiktirilgan holatda, bank filiali xodimi tomonidan aloqa vositalaridan foydalangan holda mijozni bu haqida shaxsan xabardor qilish;

Mijoz tomonidan shartnomada belgilangan majburiyatlar bajarilishi 3 (uch) kundan oshgan muddatda kechiktirilgan holatlarda, ikkinchi taraf jismoniy shaxs bo'lsa- ogohlantirish xati, yuridik shaxs bo'lsa- talabnama yuborish;

**Eslatma\*** *Ogohlantirish xati (talabnama) qonun hujjatlari talablariga muvofiq yozma tarzda rasmiylashtirilib, pochta aloqasi orqali buyurtma yoki qimmatli xat tarzida yuborish yoki taraflarga tilxat olish asosida shaxsan topshiriladi.*

Mijoz tomonidan shartnomada belgilangan majburiyatlar bajarilishi 15 (o'n besh) kundan ortiq kunga kechiktirilgan hollarda, ikkinchi tarafga navbatdagi ogohlantirish xati yoki talabnama yuborish;

Mijoz tomonidan shartnomada belgilangan majburiyatlar bajarilishi 30 (o'ttiz) kundan ortiq muddatga kechiktirilgan holatlarda ikkinchi tarafga uchinchi ogohlantirish xati (talabnama) yuborish, ogohlantirish xati yuborish hamda majburiyatlar ogohlantirish xati (talabnama)da talab qilingan vaqtida bajarilmasa majburiyatlarni bajarilishini shartnoma ta'minotiga qaratilishi yuzasidan sudga da'vo arizasi kiritilishi haqida ogohlantirish;

Majburiyatlar ogohlantirish xati (talabnama)da belgilangan muddat da'vomida bajarilmagan holda bank filiali O'zbekiston Respublikasi Savdo sanoat palatasining tegishli hududdagi hududiy boshqarmasiga bank manfaatini ko'zlab sudga da'vo arizasi kiritish yuzasidan xat bilan chiqish;

Savdo sanoat palatasi hududiy boshqarmasi tomonidan bank va ikkinchi taraf o'rtasida o'zaro murosaga kelish yuzasidan o'tkazadigan mediatsiyada ishtirok etish kabi bo'lган bir necha bosqichli harakatlarni amalga oshiradi.

Yuqoridagi harakatlar o'z natijasini bermagan hollarda Savdo sanoat palatasi hududiy bo'limi tomonidan bank manfaatlarini ko'zlab sudga da'vo arizasi kiritiladi hamda da'vo talablari bilan taraflarni tanishtirish maqsadida da'vo arizasi nusxasi taraflarga yuboriladi.